

**Xalqaro IT-sertifikatlarga ega yoshlarning o‘qishi hamda ularning xalqaro
IT-sertifikatlarni olishi uchun sarf qilgan xarajatlarining
50 foizgacha bo‘lgan qismi qoplab berish
TARTIBI**

1. Talabgor, xalqaro IT-sertifikatni olganidan so‘ng, <https://my.gov.uz/ru/service/622> portali orqali ro‘yxatdan o‘tib, murojaat qoldiradi (*Sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun mobaynida*);
2. Ishchi organ talabgorning arizasi va hujjatlarini ko‘rib chiqadi hamda talabgor tomonidan taqdim qilingan xalqaro IT-sertifikatni verifikatsiyadan o‘tkazadi;
3. Ishchi organ talabgorning hujjatlarini umumlashtirib, moliyalashtirish yuzasidan takliflarni vakolatli organga kelishish uchun kiritadi;
4. Xalqaro IT-sertifikatning haqiqiyliги tasdiqlanmaganda bu haqida talabgorga <https://my.gov.uz> portali orqali xabar yuboradi;
5. Vakolatli organ tomonidan, xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan kiritilgan takliflar kelishib beriladi;
6. Ishchi organ talabgor ko‘rsatgan hisob-varaqqa tegishli pul mablag‘larini yo‘naltiradi.

Xalqaro IT-sertifikatning darajasiga oid xarajatlarining qoplanishi mezonlari: boshlang‘ich – 30%; o‘rta – 40% va professional – 50%.